

## MAXTUMQULI IJODIDA PRETSEDENT NOMLAR

**Bozorov Hamid Xo‘shmurodovich,**  
TerDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrası  
o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD). O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turkman adabiyotining yirik vakili Maxtumqulining turkiy xalqlar adabiyotida tutgan o‘rni, she‘rlarida turkiy xalqlarning umummilliy va madaniy jihatlarini ifodalovchi leksik birliklar tahlilga tortilgan. Shuningdek, Firog‘iy poeziyasida ifodalangan pretsedent nomlarning o‘ziga xos tomonlari haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** turkiy, umummilliy, madaniy, lingvomadaniy, xalq og‘zaki ijodi, pretsedent nom, etalon.

**Abstract.** In this article, the role of Makhtumkuli, a major representative of Turkmen literature, in the literature of the Turkic peoples, and the lexical units expressing the national and cultural aspects of the Turkic peoples in his poems are analyzed. There are also comments about the specific aspects of the precedent names expressed in Firoghi’s poetry.

**Key words:** turkish, nationwide, cultural, linguistic, folk art, precedent name, etalon.

Turkiy xalqlarning yirik ijodkorlari o‘z asarlarida turkiy so‘zlarning ifoda imkoniyatidan unumli foydalanib, o‘z xalqining stereotiplarini, nutqiy etiket birliklarini, lingvomadaniy manzarasida mavjud bo‘lgan milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni ochib berishga intilgan. Bunday ijodkorlar xalq tomonidan e‘zozlanib, alohida hurmat bilan tilga olingan, asarlari asrlar o‘tsa-da sevib o‘qib kelingan. Xususan, turkiy xalqlar adabiyoti va folklorida “umumiy tarixiy adabiyotni tashkil etuvchi ko‘plab xalqlar uchun muhim o‘rin tutuvchi shaxslar yoki personajlar: Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Nasriddin yoki Afandi, Qo‘rqut ota yoki Dede Qo‘rqut, Ko‘ro‘g‘li yoki Go‘ro‘g‘li, Manas, Mavlono Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy, Maxtumquli, Fuzuliy... va hokazolar umummadaniy aloqalarni” [3, B. 48] yuksaltirishda muhim iz qoldirgan. Yuqorida nomlari zikr etilganlar ichida turkman xalqining atoqli adibi Maxtumquli ijodiga e‘tibor qaratilar ekan, unda ifodalangan til birliklarining folklor tiliga yaqin, xalqona ruhda ekanligi sezilib turadi. “Har bir xalqda o‘ziga xos uslubga ega shoir va ijodkorlar kam. Adabiy asarning yaxshi ekanini ko‘rsatadigan asosiy shartlar uning zamon oqimida doimiy bo‘lishi, makon pozitsiyasini qamrab olishi, asrlar davomida omma tomonidan qabul qilinishidir. Vaqt o‘tishi bilan adabiy asarning xalq tomonidan o‘zlashtirilishi uning avlodlarga yetib borishini ta‘minlaydi. Maxtumquli o‘zi yashab o‘tgan davrning barcha qirralarini o‘zlashtirib, o‘z iste‘dodidan unumli foydalanib, o‘z davrining madaniy-ijtimoiy, siyosiy sharoiti zarur bo‘lgan masalalarni jamiyatga yetkazishga harakat qilgan faylasuf va so‘fiy shoirdir” [7, B. 125]. Maxtumquli nafaqat turkman xalqining, balki butun turkiy

xalqlarning urf-odat, an'ana va qadriyatlarini kuylagan shoirdir. Uning ijodida turkiy xalqlarga xos milliylik yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu milliylikni o'zida mujassam etgan satrlarda turkiy xalqlarga xos leksemalarni qo'llash mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Maxtumquli ijodida o'zbek xalqida bo'lgani kabi uzoq asrlik fors-tojik xalqi bilan qo'shnichilik, quda-andachilik, birodarlikning yorqin namunalarini uning ijodida ham sezilib turadi. Xususan, "Maxtumquli asarlari tojik-fors adabiyoti mavzui motivlari bilan chambarchas bog'liq. Uning nomi Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy va boshqa fors-tojik adabiyotining mutafakkirlari nomlari bilan birga yodga olinadi" [2, B. 305], – deyilishi ham o'rinlidir.

Firog'iy so'z tanlashda o'ziga xos uslubga ega bo'lib, til ilmida yetuk shaxs bo'lganligini misralaridan bilib olishimiz mumkin. Uning o'zi ham til va nutq masalasiga jiddiy e'tibor qaratgan bo'lib, til olloh tomonidan insonga berilgan eng buyuk ne'mat ekanligini ta'kidlab o'tadi:

*Magtymguly, şükür, şirin til berdi,  
Şejerler gögerip, semer gül berdi.*

Bu esa Maxtumquli ijodini tilshunoslik nuqtayi nazardan ham tahlil qilish lozimligini ko'rsatadi. Uning ijodi satrlarida qo'llanilgan so'zlarni tahliliga diqqat qiladigan bo'lsak, turkiy xalqlar uchun, xususan, bugungi kunda o'zbek xalqi uchun ham lingvomadaniy xarakterga ega ko'plab obraz va timsollarni, maqol va iboralarni uchratishimiz mumkin.

*Luqmondek har ishning chorasin bilsang,  
Rustamdek devlarga hukm-farmon qilsang,  
Iskandardek yerning yuzini olsang,  
Bir kun yakson bo'lib, yerdek bo'larsan [1, B. 204].*

Ushbu misralarda turkiy xalqlar lingvomadaniyatidan o'rin olgan, xalq o'g'zaki ijodining yirik janrlari – doston va ertaklarida mavjud *Luqmon* va *Rustam* obrazlari, "yer bilan yakson bo'lmoq" (butunlay yemirmoq, yo'q qilmoq) [6, B. 244] iborasining qo'llashini o'zi Maxtumqulining turkiy xalqlarning ijodkori ekanligidan dalolat beradi. Shu o'rinda aytib o'tishimiz joizki, misradagi Luqmon, Rustam, Iskandar kabi obrazlar pretsedentlik xarakteriga ega bo'lib, Luqmoni Hakim – *donishmandlik* (*donishmand tabiblik*), Rustam – *mardlik*, *pahlavonlik*, Iskandar – *buyuk sarkardalik* (ba'zi lingvomadaniyatlarda bosqinchilik) etalonlarini ifodalab keladi. Bundan ko'rinib turibdiki, Maxtumquli ijodida qo'llangan pretsedent nomlar alohida tadqiq qilish zarurati bor.

Pretsedent nomlar ma'lum sifatlarning namunaviy yig'indisiga ishora qilish xususiyatiga ega bo'lganligi sababli muayyan lingvomadaniyatda biror tushunchaning ramzi sifatida qo'llanadi [3, B. 140]. Quyidagi misralarga diqqat qilaylik:

*Ul Xizr, Ilyos bilan Ahmad, Sulaymon anda bor,  
Ul Salim shoh, Makka xoni – ibni Sulton anda bor,  
Boyazid, Sulton Uvays, Xarqonu Sufyon anda bor,  
Bir necha Majnun kabi choki girebon anda bor,  
Tayanar Muso asosi – mori ko'rdim – shundadir [5, B. 87].*

Ushbu parchada berilgan *Xizr, Sulaymon, Boyazid, Sulton Uvays, Majnun, Sulton Salim, Muso* kabilar ko'plab xalqlar uchun umummadaniy pretsedent nomlar hisoblanib, barcha turkiy xalqlar uchun birdek etalonlarni ifodalaydi. Xususan, *Majnun – telbalarcha oshiqlik, Xizr – homiy, g'ayritabiiy ko'makchi* [4, 88], *Sulaymon – donolik* kabi etalonlarni ifodalab keladi.

*Hasratima falak yig'lar, oshiq bo'ldi tilsiz zog'lar,  
Farhod bo'lib, buyuk tog'lar yiqgum Yusuf deya-deya.*

Yuqoridagi misrada *Farhod* va *Yusuf* kabi pretsedent nomlar berilgan bo'lib, Sharq xalqlari lingvomadaniyatida *Farhod – bardoshlilik va otashin muhabbat, Yusuf – go'zallikni* majozlaydi.

*Qurt Ayyubning tanin edi,  
Iblis shuncha nuqib kechdi.*

Ushbu misrada nomi zikr etilgan *Ayyub* alayhissalomni, islom ta'limotiga asoslanib, turkiy xalqlarning ko'pchiligida “*kofirlarga o'rnak (namuna)*” ramzini ifodalashini ta'kidlab o'tishimiz joiz. *Iblis* esa “*insonlarni yo'ldan ozdiruvchi*” ramz sifatida xalq ongida gavdalanadi.

Ijodkorning birgina “*Darmon bo'lsam*” she'rida *Umar Hayyom, Firdavsiy, Nizomiy, Rumi, Navoiy, Farhod, Shirin, Majnun, Bobur, Sa'diy, Bahromshoh, Abu Bakr, Hazrat Ali, Ma'mun, Rustam, Iskandar* kabi antroponimlar, “*Farhod va Shirin*”, “*Chor devon*”, “*Arba'in*”, “*Ma'zon ul-avzon*”, “*Jome' ul-ma'oniy*”, “*Bo'ston*”, “*Madoniy*”, “*Shohnoma*”, “*Soqiynoma*” [1, B. 225] kabi bibliionimlar allyuzivlik xarakter kasb etadi.

Yuqoridagi misollardan *Firog'iy* ijodida xalq og'zaki ijodi namunalaridagi klassik obrazlari muhim ahamiyat kasb etgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz joizki, “yozma adabiyot boshqa tillar va madaniyatlar bilan kengroq bog'liq bo'lganligi sababli, maktab, ta'lim va yozuvchilarning asar yaratishi tufayli til o'zagidan bo'lgan so'zlarning mavjudligini ham boyitadi [7, B. 140]. *Maxtumqulining* ijodi ham yozma ijod namunalari

bo'lsa-da, undagi til ifodalarida xalq og'zaki ijodiga yaqin jihatlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Maxtumqulining ijodiy merosi asrlar o'tsa-da ko'pchilikning e'tiborini tortib kelmoqda. Uning hayoti va ijodiy yo'liga bag'ishlangan bir qator asarlar yaratildi. G.Quliyevning "Mağtinguli" romani, B.Kerabayevning "Mağtinguli" dramasi, T.Taganovning "Dürler Hazinasi" asarida ijodkorning hayot yo'li yoritilgan bo'lsa, H.Durdiyev "Aql gämisi" nomli kitobida Maxtumqulining falsafiy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Maxtumquli ijodida xalq og'zaki ijodiga yaqin unsurlarning singdirilishi uni xalq, xususan, turkiy xalqlar ijodkori sifatida qadr topishiga sababchi bo'ldi. Zero, "ulug' turkman mumtoz shoirining shuhrati hayotligida ham nafaqat Turkmanistonda, balki O'rta Osiyo chegaralaridan ham chiqib ketdi. Adabiy til bilan xalq tili o'rtasidagi o'ziga qadar keng tarqalgan to'siqni olib tashlagach, XVIII-XIX asr turkman adabiyotining qiyofasini o'zgartirib, uni ommaga taqdim etishga muvaffaq bo'ldi. Xalq adabiyoti va xalq tilining boy materialidan mohirona foydalanib, keng mavzular yaratdi" [8, B.85]. Maxtumquli nafaqat turkman xalqining, balki barcha turkiy xalqlarning umumiy shoiridir. Chunki uning ijodidan turkiy xalqlarning umummilliy, umummadaniy qadriyatlari joy olgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Махтумқули. Дунё ўтиб борадир... – Т.: "Шарқ" НМАК, 2007. – Б. 204.
2. Раджабова К.Х. Махтумқули и суфийское направление накшбандия. – Б. 305.
3. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2015. – Б. 140.
4. Ali Resul Usul. Role of regional organizations in promoting cooperation in Central Asia. Importance of social and cultural ties // United Nations Regional Centre for Preventive Diplomacy for Central Asia (UNRCCA). – P. 48.
5. Bozorov H. O'zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. diss. – Termiz, 2023. – B. 88.
6. Maxtumquli. Saylanma. Mirzo Kenjabek tarjimasini. – T.: 2007. – B. 87.
7. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 244.
8. Yaghoob Rahimi Dashliboroon. Mahdumkulu Firakí'nin Şiirlerinde Vezin // Modern Türklük Araştırmaları Dergisi Cilt 14. Sayı 1. Mart 2017. – B. 125-140.
9. Youssef AZEMOUN. Türkmen şairi mağtinguli ve onun eserleri hakkında bilinmesi gereken konular-1. № 1 belleten. 2021. – B. 85.